ISSN: 2181-4341, IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 9.145, SJIF – 5,431

M.U.Savriddinova

Guliston davlat pedagogika instituti 3-bosqich talabasi

e-mail: mexrinozulugbekovna1209@gmail.com

Tel: +998944677644

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA HIKOYALARNI TAHLIL QILISH ORQALI MANTIQIY FIKRLASH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kundagi boshlang‘ich ta’lim tizimi haqida aytib o‘tilgan. Boshlang‘ich sinflarda hikoyalar o‘qitish metodikalari yoritilgan. Darslikdan hikoya keltirilib, uning tahlili ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Boshlang‘ich ta’lim, pedagog, hikoyalar, ta’lim tizimi, o‘quvchi, asarlar, metodika, asar qahramoni, o‘qituvchi, darslik.

Abstract: This article discusses the current state of the primary education system. It highlights the methodology of teaching stories in primary grades and analyzes a sample story taken from a fourth-grade textbook. The importance of developing students’ reading skills and moral understanding through stories is emphasized.
Keywords: Primary education, teacher, stories, education system, student, literary works, methodology, character, textbook, reading skills.

Аннотация: В данной статье рассматривается современная система начального образования. Освещаются методики обучения чтению рассказов в начальных классах. Приводится пример рассказа из учебника и проводится его анализ.

Ключевые слова: Начальное образование, педагог, рассказы, система образования, ученик, произведения, методика, герой произведения, учитель, учебник.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, boshlang‘ich ta’lim ta’lim tizimining poydevoridir. Boshlang‘ich ta’lim inson hayotida juda katta va muhim ahamiyatga ega. Buni o‘quvchilarning fikrlashi oshishidan va dunyoqarashining kengayishidan ham bilib olishimiz mumkin. Dunyoqarashi keng bo‘lgan inson har qanday sohada o‘zini ko‘rsata oladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari yuksak salohiyatli bo‘lib yetishishlari uchun, avvalambor, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi yetuk malakali bo‘lishi lozim. Mahoratli pedagogning o‘quvchilari har tomonlama bilimdon, zukko bo‘lishadi.

Boshlang’ich sinflarda ta’lim nazariyalari va usullariga qarab o’rganish jarayoni olib boriladi. Bu sinflarda o’quvchilarga kelajakdagi ta’lim yo’nalishlari uchun asosiy qobiliyatlar o’rnatiladi. Darhol amaliy mashg’ulotlar, o’yinlar va interaktiv usullar ishlatiladi. O’quvchilarning erkin jamoatda ishlash va mustaqil o’rganish qobiliyatlari ham rivojlantiriladi. Boshlang’ich sinflarda ham o’quvchilarga ba’zi adabiyotlar, hikoyalar va masallar orqali dunyo bilimlarini va ertaklar adabiyotlarini tanitish tavsiya qilinadi. Bu usul o’quvchilarning qiziqishlarini oshirish, ularni o’qishga va o’rganishga qiziqishni oshirishga yordam beradi.

Boshlang'ich sinflarda hikoya o'qitish metodikasi, talim jarayonida o'quvchilarni qiziqtirish va ularning adabiyotga qiziqishlarini oshirish uchun keng foydalaniladigan bir usuldir. Bu metodikada, o'qituvchi o'quvchilarga qiziqishlarni oshirish uchun doimiy hikoyalar aytadi. Hikoyalar o'qituvchining kichik yoshdagi o'quvchilar bilan bog'liqlikni yaratish va o'quvchilarning erkin fikrlash va ifoda qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, hikoyalarni izlash, adib boshqalar tomonidan aytib o'tkazilishi va ularning hikoyalardagi eng muhim odatlari o'zlashtirish uchun amaliy mashg'ulotlardan ham foydalanish mumkin.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarga hikoyalar o'qitish, ularning o'qishga qiziqishlarini oshirish, so'z bog'lash va tushunchalarini rivojlantirish uchun samarali usul hisoblanadi. Hikoyalar o'quvchilarning e'tiborini tortish, ularning o'z fikr va taxminlarini ifoda qilish, sheriklik va ijodiylik qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Hikoyalar orqali o'quvchilar o'zlarini qahramonlarning orasiga joylashtirish va ularning odatlarni tahlil qilish, maslahat berish va muhit bilan bog'liq muammolarni yechish qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Hikoyalar o'quvchilarga tarixiy yo'nalishlardagi hodisalar, odamlar va maqolalar haqida ham ma'lumotlar berish orqali ularning dunyo bilimlarini rivojlantirish hamda erkin fikrlashlarini oshirishga xizmat qiladi. Ular o'quvchilarning hamkorlik, ishbilarmonlik va haqoratlash kabi mavzular bilan bog'liq mustahkam qarorlar olish qobiliyatlarini rivojlantirishida muhim ahamiyatga ega. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qishga sevgi va qiziqishlarini oshirishning eng jonli usullaridan biri bu ularga hikoyalarni o'qitib, tahlil qilishdir.

O'quvchilar nafaqat hikoyalarni, balki badiiy asarlarning boshqa janrlarini ham o'qishda, uni tushunishda bir nechta omillarga amal qilishlari lozim. Ular quyidagilar:

• Hikoyaning muayyan qismini ajratib ko'rsatish hamda ulardan sodda xulosalarni ifodalashda foydalanish.

• Voqealar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni ko'rsatish. Hikoyaning umumiy g'oyasini aniqlash. Qahramonlarning xatti-harakatlarini izohlash. Hikoyaning qismlarini ochib berish.

• Asar qahramonlarining xatti-harakatlari, xulq-atvori hamda his-tuyg'ularini taqqoslash va qiyoslash. Ularning o'zaro munosabatlarini tushuntirish. Hikoyada qo'llangan maqol, masal kabi til vositalarining xususiyatlari ustida tahlil o'tkazish

• Hikoyaning asosiy g'oyasini idrok qilish, unda yashiringan ma'no-mazmunni aniqlash va umumlashtirish. Hikoyadagi qahramonlarning asosiy tavsiflari, ularning qiziqishlari va his-tuyg'ularidan kelib chiqib savollarga javob berish hamda hikoyadan misollar keltirib javoblarini asoslash.

Bir qancha kuzatuvlar, psixologik tekshirishlar natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida adabiy qahramonlarni idrok qilish, tushunish va ularni baholashdagi xususiyatlari o'rganilgan. Asosan, ular adabiy qahramonga 2 xil munosabatda bo'lishlari aniqlangan ekan.

1) Adabiy qahramonlarga emotsional munosabat bildirish.

2) Sodda tahlil qilish.

Asar qahramonlariga baho berishda o'quvchi o'z shaxsiy va axloqiy tushunchalaridan foydalanadi. Axloqiy tushunchalar kichik yoshli o'quvchilarda chegaralangan bo'ladi. Ular faqatgina asar qahramonlariga mehnatsevarlik, yaxshilik, botirlik, to'g'rilik kabi xususiyatlar yuzasidan baho beradilar. Qahramonlarning boshqa sifatlarini ifodalashda boshlang'ich sinf

o‘quvchilarining so‘z boyliklari yetarli bo‘lmaydi. Shunday vaziyatda o‘qituvchining vazifasi o‘quvchilarga asar qahramonlarini tahlil qilishda ularga turlicha baho bera olishga ko‘maklashish bo‘ladi.

Hikoyani o‘qigandan so‘ng uni har tomonlama tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Har bir hikoyani o‘qigandan keyin uni tahlil qilish, hikoya yuzasidan berilgan savollarga javob topish orqali o‘quvchilarning fikrlash doirasi kengayadi. Har bitta o‘quvchidan o‘zining yondashuviga mos turli javoblarni olishimiz mumkin.

Keling, 4-sinf o‘qish darsligidagi quyidagi hikoyani tahlil qilib ko‘raylik.

QODIR BILAN SOBIR

Hakim Nazir

Ba’zi o‘rtoqlari Qodirni «zo‘ravon» desa, ba’zilari

«do‘mbirachi» deydi. Nega desangiz, unda har ikki

«hunar»dan ham oz-moz bor. «Zo‘ravon»ligi shuki, u

yurgan yo‘lida va o‘tirgan yerida yon-veridagilarni turtibnetib, tegajog‘lik qilaveradi. «Do‘mbirachi»ligi shuki, agar sinfda biron bola xiyol yanglishsa, u lunjini pufak qilib

olib, ikki barmog‘i bilan «taka-tum»ni chalib yuboradi.

O‘zi yanglishganda-chi, biron kishining kulishga haddi

Bormi? Zo‘ravonligini ko‘rsatib qo‘yadi-ku...

Kunlarning birida Qodir sinfdoshi Sobir bilan ko‘chada keta

Turib, chiranib qoldi:

– *Men hech narsadan qo‘rqmayman! – dedi. – Akam bilan*

Dalaga borganimizda kattakon Salorda cho‘milganmiz. Innaykeyinchi, odamday-odamday baliqlarni

Tutib olganmiz, tirikligicha.

– *Baliq nima bo‘pti! – dedi unga Sobir. – Biz dadam bilan g‘oz ovlaganmiz. Patillab uchib ketayotgan g‘ozning qoq tumshug‘iga tushirganmiz. Ha, qoq*

Tumshug‘iga!

– *Siz tushiribsizmi, dadangiz tushirganlar-da!*
– *Men ham! Men nishonni ko‘rsatib turganman. Bizning dada zo‘r mergan. Ikkita ordeni bor.*
– *Bizning aka-chi, nomi chiqqan komandir! Ikki*

Yuzta askarga boshliq bo‘lgan. Men ham katta

Bo‘lganimda komandir bo‘laman.

– *Bo‘lib bo‘psan, – dedi Sobir. – Komandir bo‘lishga*

Yurak kerak. O‘zing sal narsadan qo‘rqasan-ku.

– *O‘zing-chi, ha, bir marta shifokor ukol qilgani kelganda, tomga qochib chiqqaning esingdami?*
– *U vaqtda kichkina edim-da.*
– *Nima bo‘pti, o‘quvchi bo‘lib darrov katta bo‘lib*

Qoldingmi?

Shu vaqt birdan itning hurgani eshitilib qoldi. Qarasalar, bir darvoza yonida bo‘rsiqday it ularga qarab vovullayapti. Quloqlari dikkaygan, tumshug‘i buzoqnikiday yalpoq, dumi tulkinikiday uzun. Qodir yo

Qo‘rqib, yo zo‘ravonligi qistab papkasini shartta yerga

Qo‘ydi. Ariq bo‘yidagi toldan bitta novdani uzib oldi-da,uning uchiga bitta toshni bog‘lab turib itga uloqtirdi. Itning fe’li aynidi. Qodirga qarab yugurdi. Qodir papkasini

Qoldirib tiraqaylaganicha orqasiga qarab qochdi. Sobir esa

O‘rtog‘ining qilig‘iga ajablanib, indamay turar edi. It yuz

Qadam joyga borganda Sobir: «To‘xta, Arslon, to‘xta!»

Deb uni to‘xtatdi, so‘ngra papkasidan bir burda non

Chiqarib berdi. Arslonning boshini silab aldadi-da, darvoza

Tomon jo‘natdi. Yerda yotgan papkani ko‘tarib olib, Qodirni chaqira boshladi. Qodir xiyla uzoqqa borib, birovning

Yo‘lagiga o‘zini urgan edi. It ko‘zdan uzoqlashgandan

Keyin u asta-sekin ko‘chaning bir chetidan kela boshladi.

– *Hali hech narsadan qo‘rqmayman demaganmiding?*
– *Dedi unga Sobir. – It bilan o‘chakishib bo‘ladimi?*

Tosh otgandan keyin har qanday yuvosh bo‘lsa ham,

Jahli chiqadi-da.

Qodir churq etmadi. Yuzini ter bosgan, rangi quv

O‘chgan, zo‘r berib halloslar edi. Qodir papkani nariberi artib, Sobirning ketidan sekin sinf eshigini ochdi.

– Sen nega kechikding? – deb so‘radi doska oldida

Turgan o‘qituvchi Fotima opa. Qodir peshanasidagi terni

Arta turib: – Dalada edim, – dedi ming‘illab. Orqadagi

Partaga endigina o‘tirgan Sobir o‘rtog‘iga jiddiy tikilib:

– Nega yolg‘on gapirasan? – dedi va ko‘chada

Bo‘lgan voqeani aytib berdi.

– Shunaqami, Qodirjon? – dedi o‘qituvchi odatdagicha muloyimlik bilan va bolalarga qaradi. – Zo‘r

Odam kuchini o‘qishda ko‘rsatadi. To‘g‘rimi, bolalar?

– To‘g‘ri, to‘g‘ri! – deyishdi bolalar.

(4-sinf o‘qish kitobi, 110-112-betlar)

Hikoyani o‘qigandan so‘ng, ushbu hikoya o‘quvchilar bilan birgalikda tahlil qilinadi hamda hikoya yuzasidan berilgan savollarga javob beriladi. Yuqorida berilgan hikoya yuzasidan quyidagi savollar berilgan:

1. Qodir o‘zini qanday so‘zlar bilan ta’rifladi? Uni maqtanchoq deyish mumkinmi? Sobirni-chi? Nima uchun?
2. Sobir o‘qishdan kechikishlarining sababini aytib to‘g‘ri qildimi? Uning o‘rnida bo‘lganingizda siz nima qilardingiz?

Berilgan savollarga har bir o‘quvchi o‘z nuqtayi nazaridan, dunyoqarashidan kelib chiqib javob beradi. Hikoya mazmunidan kelib chiqqan holda savollarga javob berib ko‘raylik. Demak, 1-savolga javob : Qodir o‘zini jech narsadan qo‘rqmaydigan deb ta’riflagan. Qolaversa, u akasi haqida ham gapirib, akasi bilan maqtangan. Qodirni maqtanchoq deyish mumkinmi? degan savol o‘quvchining o‘ziga berilgan. Biz albatta Qodirni maqtanchoq deb hisoblashimiz mumkin. Sobir haqida ham maqtanchoq deyishimiz mumkin, chunki u ham dadasi bilan g‘oz ovlaganini aytib maqtanchoqlik qilgan. Endi 2-savolga javob bersak. Albatta, Sobir o‘qishga kechikishlarining sababini aytib to‘g‘ri qildi. Bundan o‘quvchilar o‘zlariga doimo to‘g‘riso‘z bo‘lish kerakligi haqida tushuncha olishadi.

Ko‘rib chiqqanimizdek, hikoyalar o‘quvchilarga tarbiya berishga ham anchagina foyda beradi. Hikoya qahramonlarining xatti-harakatlarini ko‘rib har bir o‘quvchi o‘zi uchun kerakli xulosalarni chiqarishi mumkin. Voqealarni to‘g‘ri talqin qilib, qahramonlarga munosib baho berishda esa o‘qituvchi yordamlashishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ–637-sonli “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – Toshkent, 2020.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi "Boshlang'ich ta'lim davlat ta'lim standartini muvofiqlashtirish" to'g'risida qarori // O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – Toshkent, 2021

3. 4-sinf O'qish kitobi: umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022.

4. Yo'ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti, 2004.

5. https://ziyonet.uz